

## **TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA YOSHLARGA O'ZBEK MILLIY TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI**

Imomatova Umida

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Tasviriy San'at va amaliy bezak san'ati yo'nalishi

II-bosqich magistranti

Nutfullayev Muxtor Nematovich

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Tasviriy San'at va amaliy bezak san'ati yo'nalishi

II-bosqich magistranti

### **Annotasiya:**

Mazkur maqola yoshlarni tasviriy san'at darslariga qiziqtirish hamda o'qitishda psixologik yo'llar milliy tasviriy san'atning o'rni, ahamiyati haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, psixologiya, yosh avlod, badiiy tafakkur, estetik did, tasavvur, idrok, go'zallik.

Har bir tug'ilgan murg'ak go'dak ertangi kunimiz asoschisi- kelajak poydevorimiz. Bugun yerdga ekilgan niholning mevasi ertaga o'z hosilini beradi. Yaxshi parvarishlangan nihol o'sib yaxshi baquvat daraxt bo'ladi va mo'l hosil beradi. Buni inson umriga qiyoslash mumkin. Shunday ekan biz bugungi yosh avlodning tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanishimizni davrining o'zi talab qilmoqda. Hozirdan yosh avlodning qalbini mahr bilan , ezguliklar bilan to'ldirib borsak, bolada barcha ijobjiy hislatlar shakllanib boradi. Bu albatta o'z hosilini beradi. Bunga qadimdan ota-bobolarimiz qattiq e'tibor berib kelishgan, ularning bosh maqsadi oilasini, o'z vatanini sevadigan, himoya qiladigan, kerak paytda o'z manfaatlaridan vatan manfaatlarini ustun qo'yadigan, bir so'z bilan aytganda "komil" insonni tarbiyalash oliy o'ringa qo'yilgan. Uzoq o'tmishdan to'planib kelingan eng yaxshi ta'lim-tarbiyaviy tajribalarni qo'llashga harakat qilib kelishgan.

Maktablarimiz dunyoviy ta'limga asoslangan bo'lib, har bir fanning oson, qisqa, asosli o'qitishning pedagogik sharoitini yarata oladigan didaktik prinsiplarga amal qiladi. Bu prinsiplar: ilmiylik, izchillik, tarbiyaviy, sistemallik, ketma-ketlik, onglik-

faollik, ko'rgazmalik, ijodkorlik, nazariyot bilan amaliyotning uzviyligi vao'quv materiallari, o'quv fanlarini bir-biriga bog'liq holda o'qitishdan iborat bo'ladi. Yuqorida fikrlardan kelib chiqib, yoshlarimizga ta'lim berish jarayonida ularning qalbida tasviriy san'atga bo'lgan mehr uchqunlarini socha olsak biz kattalar oldimizga qo'ygan badiiy tafakkurni yuklastirishga, estetik dunyoqarashini shakllantirishga, tabiatni his qilishga, uning ajralmas bir bo'lagi ekanligiga, yon atrofimizdagи har bir narsaning go'zalligini his qila olishga chorlaydi. Tasviriy san'at o'quvchi yoshlarimizga faqatgina go'zallik, ilm-tafakkur beribgina qolmay inson ongining yetuk jihatlari ya'ni ko'rish kuzatish, hayolda analiz-sintez hizmat qiladi. Endigina ma'nayiv dunyosi shakllanib kelayotgan yoshlarimiz turli xil predmetlar bilan tanishib , ularning bir-birlariga nisbati, shakl-u shamoyili chiroyli elemetnlarini aniqlaydilar va har bitta narsaga sinchiklab razm solib rang tuslarini o'rganadilar. Tasviriy san'at mashg'ulotlari ma'naviy dunyoni kengaytiribgina qolmay bolaning ko'rish a'zolarini ham takomillashib boradi. Chunki har bir mashg'ulotda narsalarni diqqat bilan kuzatib, butun hayolini bir joyga jamlab, e'tiborini bir nuqtaga qaratishni o'rganadi. Inson rasm chizar ekan uning tasavuri hamda dunyo qarashi ya'ni borliqni anglashida juda ahamiyatga ega hisoblanadi. Umumiy olganda yoshlarimizning har tomonlama rivojlanib barkamol avlod sifatida tarbiyalashida tasviriy san'atning o'rni beqiyosdir. San'atga oshno qalblardan hech qachon yomonlik chiqaydi. Tasviriy san'at fani rassom yetishtirib qolmay insonni tafakkurini ham oshirib boradi bu esa yoshlarga yana zavq va ilhom beradi, San'atning turlari juda ko'p. Bular adabiyot, musiqa, kino, teatr, raqs, tasviriy san'at va boshqalardir. Barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. San'atning eng qadimiy va keng ma'noga egadir. tasviriy san'at inson ongiga juda tez tasir etib, unga inson kamolotini shakllantirishga yordamchi kuch hisoblanadi. Aynan manashu narsa biz ko'zlagan maqsad ya'ni bugungi kunda har bir shaxsni grafik bilimga ega bo'lishi o'ziga ham , jamiyatga ham suv va havodek zarurdir. Prizezidentimiz Sh. M. Mirziyoyevning "Tasviriy va amaliy san'at sohalarida milliy merosimizni qayta tiklash, Komoliddin Behzodning ijodiy namunalarini xalqimizga to'la yetkazib berish," sohaga hissa qo'shgan atoqli rassom va ustalarini nomini adabiylashtirish, hamda mamlakatimizda tasviriy san'at, dizayn sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar qabul qilinmoqda. Davlatimiz rahbari ijtimoiy ma'naviy-marifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qoyish bo'yicha 5ta tashabbusni ilgari surdilar. Birinchi tashabbusda



yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning bir yuqorida ko'zlagan masqadga qo'yilgan qadamlar deb o'ylaymiz. Teatr, kino ko'rgazmalarga borganda inson o'zini xotirjam va baxtli, kunlik muammolardan bir oz bo'lsa ham holi his qiladi. Shuning uchun jamoat joylarda shunday ko'rgazmalarini tashkil etishimiz jamiyatimizga O'zbekistonimizning milliy tasviriy san'ati nihoyatda go'zalligi, takrorlanmas va dunyo hamjamiyatiga o'z o'rni borligini bildirishimiz lozim. O'ylaymizki har bir honadonda tasviriy san'at asarlari bo'lmos'i lozim, chunki inson asarlarga qaraganda yengillashadi, hayotning yaxshi-yomon taraflarini ko'rshga o'zida kuch topishadi ko'maklashadi, shunday asarlar borki, inson o'z hayotiga shukronalar aytadi va hulosa chiqaradi. Bunday tushunchalarga ega bo'lgan odam kelajakdan umidlari katta va taraqqiy etishni xohlaydi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Fransuz faylasufi Mari Gyoto : "San'atning eng yuksak maqsadi inson yuragini urishdir va yurak hayotning markazi ekan san'at doimo insoniyatning butun axloqiy va moddiy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak" shu bois har bir sohada idjodkori uchun rasm chizishni bilish unga qayta iodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Barcha san'at go'zallik olamini bilish unga qayta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi. Barcha san'at va go'zallik olamini bilish hamma sohalarda jadal rivojlanishiga, bu esa vatanimiz gullab-yashnashida imkoniyat yaratadi.

Tasviriy san'at qanchalik darajada o'rganmaylik uning oxirigacha yetish mushkul masala bo'lib qolmoqda. Ushbu fanni o'qitishda turli metodlardan yo'naliishlardan foydalanib kelinmoqda. Tasviriy san'at darsini o'tishda rasm chizayotgan yoshlarni fantaziyasini juda mukammal bajaradi. Biz yosh avlod tasviriy san'atni yanada dunyo miqyosida cho'qqilarga chiqarish yo'lida kurashmog'imiz va doimiy harakatda bo'lishimiz shart va zarur. Buyuk ajdodlar bebaho merosini asrabavaylab, kelajak avlodga yetkazish, sayyoqlar ongida buyuk davlatimiz tarixini mujassamlashtirishda zamonaviy tasviriy san'at durdonalarini, madaniy meros va milliy turizm faqatgina iqtisodiy daromad manbai sifatida emas, balki milliy tasviriy san'at tarixi targ'ibotchisi sifatida ham e'tirof etilishiga sabab bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Ijodiy to'garaklar orqali yoshlarni tasviriylar san'atdan tasvirlashmalaka va ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi F Bozorov // Science and Education. – 2022.
2. Interpretation Of Works By Uzbek Artists In Landscape Genres Ma Shodizoda, KK Hasanovich, BF Toyir odli – Think India Journal, 2019
3. Berdiyev N.Z. Tasviriylar san'atdan o'quv postonovkalarini tashkil etishda nazariy materiallardan foydalanish texnologiyalari // Science and Education. – 2022. T.3. №.4/-C.1499-1507.
4. Berdiyev Navro'z Odiljon O'g'li, & Xaqnazarova Xadicha Xasanovna. (2023). YOSHLARGA BADIY KULOLCHILIKNI O'RGATISHDA KLASTER TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH. Proceedings of international Educators Conference, 2(1), 6-8. Retrieved from.
5. КЛАСТЕР ЁНДШУВИДАГИ «АРТ-ТЕРАПИЯ» ТАЪЛИМИ - ФАНЛАР ИНТЕГРАЦИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ОМИЛИ НША Н.Ш. Алимова бакалавр 2-курс талабаси Х.Э. Султанов, И.М. Марасулова Чирчик давлат педагогика институти, Қ.Я. Абдухамидов магистр 1-курс
6. ТАЛАБАЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ, ЭСТЕТИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШ ҚЯ Абдухамидов - JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND ..., 2022.